qo‘lyozmalarni o‘zlashtirishlarga tekshirish
(antiplagiat reglamenti)

TARTIBI

1. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu Tartib «Jamoat xavfsizligi / Общественная безопасность / Public Safety» ilmiy-amaliy jurnaliga (keyingi o‘rinlarda — Jurnal) kelib tushadigan qo‘lyozmalarni plagiat va o‘zlashtirishning boshqa insofsiz shakllari mavjudligiga majburiy tekshirish protsedurasini belgilaydi.

1.2. Tartib O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘ining buyrug‘i bilan tasdiqlangan Jurnalning nashr va publikatsiya etikasi to‘g‘risidagi Nizomning 7-bo‘limi bilan o‘zaro bog‘liq holda qo‘llaniladi.

1.3. Ushbu Tartibning maqsadlari mualliflik huquqini himoya qilish, nashr etiladigan ilmiy asarlarning o‘ziga xosligini ta'minlash va qo‘lyozmalarni tayyorlashda insofsiz harakatlarning oldini olishdan iborat.

2. Asosiy atamalar

Plagiat — boshqa mualliflarning matni, g‘oyalari, natijalari yoki tasvirlarini manbani ko‘rsatmasdan o‘zlashtirish.

O‘xshashlik indeksi (Similarity) — qo‘lyozma matnining boshqa manbalar bilan mos kelish foizi bo‘lib, tekshirish tizimi tomonidan hisoblanadi.

O‘z-o‘zini iqtibos keltirish (Self-citation) — qo‘lyozma matnining o‘sha muallifning oldingi ishlari bilan mos kelishi.

Mozaik plagiat — turli manbalardan olingan parchalarni to‘g‘ri havolalarsiz kompilyatsiya qilish.

Tarjima plagiati — matn yoki tasvirlarni boshqa tildan manbani ko‘rsatmasdan tarjima qilish.

3. Tekshirish vositalari

3.1. Jurnal o‘z ishida o‘zlashtirishlarni tekshirishning quyidagi tizimlaridan foydalanadi.

3.2. Foydalaniladigan dasturiy vositalar ro‘yxati ushbu Tartibga o‘zgartirish kiritmasdan tahririyat hay'atining qarori bilan aniqlashtirilishi mumkin va Jurnalning rasmiy sayti orqali mualliflar e'tiboriga yetkaziladi.

4. Chegaraviy qiymatlar

4.1. O‘xshashlik indeksining quyidagi chegaraviy qiymatlari belgilangan:

Ko‘rsatkich	Yo‘l qo‘yiladigan qiymat	Izoh
Umumiy o‘xshashlik indeksi	≤ 20%	Bibliografiya, formulalar, jadval va rasmlarga izohlar, umume'tirof etilgan terminologiya hisobga olinmaydi
Bitta manba bilan o‘xshashlik	≤ 5%	Bitta manbadan mos kelishlarning yuqori konsentratsiyasi qo‘lda tekshirilishi lozim
O‘z-o‘zini iqtibos keltirish	≤ 10%	O‘z ishlari bilan mos kelishlarda manbani ko‘rsatgan holda to‘g‘ridan-to‘g‘ri iqtibos keltirish majburiy
Annotatsiya va kalit so‘zlar	Hisobga olinmaydi	IMRAD standart iboralarining ta'sirini kamaytirish uchun istisno qilinadi

4.2. Mos kelishlarning umumiy foizi bo‘yicha quyidagi qarorlar qabul qilinadi:

Mos kelishlarning umumiy foizi	Qaror	Izoh
≤ 20%	Qabul qilinadi	Normal ilmiy iqtibos keltirish doirasida
20% — 30%	Qo‘lda tekshirish	Matn parchalari, iqtiboslar va havolalarning to‘g‘riligini tekshirish
30% — 40%	Qayta ishlash	To‘g‘ri iqtibos keltirish va qayta ifodalash talabi bilan muallifga qaytarish
> 40%	Rad etish	Jiddiy plagiat; rasmiy asoslangan rad etish yo‘llanadi

5. Tekshirish jarayoni

5.1. Birlamchi skrining. Tahririyat kelib tushgan qo‘lyozmaning rasmiylashtirishga doir texnik talablarga muvofiqligini tekshiradi.

5.2. Plagiatga tekshirish. Barcha qo‘lyozmalar majburiy tartibda plagiatni aniqlash ichki va tashqi tizimlari orqali tekshiriladi.

5.3. Qo‘lda tasdiqlash. Nizoli parchalarni tahlil qilish va havolalarning rasmiylashtirilishi to‘g‘riligini tekshirish mas'ul kotib yoki tayinlangan muharrir tomonidan o‘tkaziladi.

5.4. Qaror. Qo‘lyozma talablarga muvofiq bo‘lganda u taqrizlashga uzatiladi; muvofiq bo‘lmaganda — muallifga qayta ishlashga qaytariladi yoki rad etiladi.

5.5. Arxivlashtirish. Plagiatga tekshirish tizimi hisobotlari tahririyat arxivida saqlanadi va uchinchi shaxslarga berilmaydi.

6. Mualliflarga qo‘yiladigan talablar

6.1. Muallif to‘g‘ri iqtiboslar va to‘liq bibliografiya bilan o‘ziga xos ishni taqdim etishi shart.

6.2. To‘g‘ridan-to‘g‘ri iqtiboslar manbani to‘liq ko‘rsatgan holda qo‘shtirnoqlarda rasmiylashtiriladi.

6.3. Rasmlar va jadvallar muallifniki bo‘lishi yoki huquq egasining ruxsati (litsenziyasi) bilan va manbani majburiy ko‘rsatgan holda foydalanilishi kerak.

6.4. Ikki marta taqdim etish (duplicate submission) va nashrlarni «bo‘lib yuborish» (salami publication) taqiqlanadi.

6.5. Muallif qo‘lyozmaga Jurnalning nashr va publikatsiya etikasi to‘g‘risidagi Nizomga №3-ilova shakli bo‘yicha deklaratsiyani ilova qilishi shart bo‘lib, unda taqdim etilgan ishning o‘ziga xosligini tasdiqlaydi.

6.6. Manbalarni to‘g‘ri ko‘rsatish va insofsiz o‘zlashtirishning oldini olish uchun muallif bibliografik havolalarni Jurnal qabul qilgan yagona uslubga muvofiq rasmiylashtiradi va yagona transliteratsiya tizimini qo‘llaydi; bu maqsadlarda GOST 7.79—2000 (ISO 9) tizimi qo‘llanilmaydi. Imkon qadar manbalar uchun obyektning raqamli identifikatori (DOI) ko‘rsatiladi. Adabiyotlar ro‘yxatini tayyorlash uchun bibliografik havolalar menejerlaridan (Mendeley, EndNote, Zotero va shunga o‘xshash) foydalanish tavsiya etiladi.

7. Taqrizchilar va muharrirlar uchun yo‘riqnoma

7.1. Tekshirish tizimi hisobotidagi foiz yordamchi ko‘rsatkich hisoblanadi; taqrizchi va muharrirning mazmuniy bahosi ustuvor ahamiyatga ega.

7.2. Nizoli o‘rinlar bo‘yicha taqrizchi qo‘lyozmaning sahifasi va satrini ko‘rsatgan holda izohlar qoldiradi.

7.3. Qo‘lyozma qayta ishlangandan so‘ng takroran taqdim etilganda yangi versiya ham tekshirish tizimi tomonidan skanerlanadi.

7.4. Mas'ul kotib (tayinlangan muharrir) adabiyotlar ro‘yxatidagi har bir manbaning sifati va ishonchliligini, shuningdek matnda keltirilgan barcha manbalarga havolalar mavjudligini tekshiradi. Ilmiy ahamiyati cheklangan nashrlarni (darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, lug‘atlar, ma'lumotnomalar, dissertatsiyalar va boshqa kam tirajli manbalar) iqtibos keltirish minimumga keltiriladi.

8. Buzilishlar va javobgarlik choralari

8.1. Buzilishning yengil darajasi (to‘liqsiz havolalar, iqtibos keltirishni rasmiylashtirishdagi ayrim noaniqliklar) — qo‘lyozma qayta ishlashga yo‘naltiriladi.

8.2. Buzilishning o‘rta darajasi (mozaik yoki boshqa muhim hujjatlashtirilmagan o‘zlashtirish) — qo‘lyozma muallifning batafsil izohlari talabi bilan qayta ishlashga qaytariladi.

8.3. Buzilishning og‘ir darajasi (to‘liq o‘zlashtirish, tarjima plagiati, ma'lumotlarni qalbakilashtirish) — qo‘lyozma rad etiladi; zarur hollarda tahririyat muallif bilan affiliatsiyalangan muassasani xabardor qiladi.

8.4. Nashrdan keyin buzilishlar aniqlanganda COPE Retraction Guidelines tavsiyalariga muvofiq maqolani chaqirib olish (retraction) siyosati qo‘llaniladi.

8.5. Mualliflik huquqining buzilishi aniqlanganda va ogohlantirishdan so‘ng u bartaraf etilmaganda muallif Jurnalning «qora reestr»iga kiritiladi.

9. Maxfiylik va ma'lumotlarni saqlash

9.1. Plagiatga tekshirish hisobotlari va hamrohlovchi materiallar ichki foydalanish uchun Jurnal tahririyatida saqlanadi.

9.2. Ko‘rsatilgan materiallar faqat tahririyatga, taqrizchilarga (zarur hollarda) va qo‘lyozma muallifiga beriladi.

9.3. Tekshirish tizimi hisobotlarining saqlanish muddati — qo‘lyozma tahririyatga kelib tushgan paytdan boshlab kamida besh yil.